

NUTQ SHAKILLARIDA ADABIY TIL MEYORLARI

Toshtemirov Xurshidbek Baxtiyor o'g'li

SamDCHTI 2-bosqich talabasi

+998943291701

xurshidoshtemirov19@gmail.com

Ilmiy raxbar: Sh.O.Mamayoqubova

Annotatsiya. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida ta'lim-tarbiya ishlari olib boriladi, ilmiy va badiiy adabiyotlar nashr etiladi, ro'znoma va oynomalar chiqariladi. Radio va televidenie eshittirishlarida ushbu til normalariga amal qilinadi. Yozma nutqda, ya'ni yozganda biz o'zbek tilining imlo qoidalariga, gapirganda esa, adabiy talaffuz normalariga amal qilamiz va hokazo. Uzbek adabiy tili, uning madaniy vositalari umummajburiy norma sifatida o'qitiladi va o'rgatiladi. Adabiy til, uning yozma va og'zaki shakli normalar bu tilda so'zlovchilarning ko'psonli shaxsiy nutqlari va bu nutqlar yig'indisidan iborat bylgan umum norma sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar:nutq,adabiy,meyor,uslub,ona tili,

Annotation. Nowadays, educational work is carried out in the Uzbek literary language, scientific and fiction literature is published, newspapers and magazines are published. These language norms are followed in radio and television broadcasts. In written speech, that is, when writing, we follow the spelling rules of the Uzbek language, and when we speak, we follow the norms of literary pronunciation, etc. The Uzbek literary language and its cultural tools are taught and taught as a mandatory norm. Literary language, its written and oral form, norms are manifested as a general norm consisting of many personal speeches of the speakers of this language and a collection of these speeches.

Key words: speech, literary, standard, style, native language,

Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'rniga ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardan uni me'yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan. Jamiyat taraqqiyoti bilan baravar holda til va nutqdagi me'yoriy holatlarni o'rganish, tahlil qilishga ham ehtiyoj kuchayib borgan va bu muammolarni hal qilishda xalqning maishiy, ma'naviy-ma'rifiy turmushi, ijtimoiy-falsafiy va estetik dunyoqarashi, urf-odatlar singari qator omillar e'tiborga olingan. Til hodisalarini, uning me'yoriy jihatlarini tadqiq etishda yana tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik ham aslo mumkin bo'lmagan. Imlo va talaffuz qoidalari asosida yozish va so'zlashni xalqimiz orasida ommalashtirish, bu qoidalarni lug'atlar shaklida mustahkamlash, har bir sohada, jumladan huquq sohasida ham tildan foydalanish me'yorlarini belgilash bugunning dolzarb vazifalaridan bo'lib qolmoqda. Bular orasida xalqimizning nutq madaniyatini yanada yuksaltirish masalasi ham muhimligicha turibdi. Chunki milliy istiqlol g'oyasi yurtdoshlarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, yoshlarimizni esa erkin, yangicha fikrlashga o'rgatishni maqsad qilib qo'yar ekan, bunga til madaniyatisiz erishib bo'lmaydi.

Nutq madaniyati, chinakam ma'noda adabiy til bilan bog'liq hodisadir. Uning paydo bolishi, insoniy asosi, talab va mezonlari adabiy til va uning mezonlari bilan bog'liqdir. Notiqlik san'ati uchun bular asosiy belgilar emas. Notiqlar orasida adabiy til talablariga to'la amal qilmaydiganlar, ma'lum lahja yoki shevada ham chinakam notiqlik san'atini namoyish qiluvchilar uchraydi. So'zga chechanlik, notiqlik til materialining xarakteriga qarab emas, nutqning ta'sirchanligiga, nutqiy san'atga qarab belgilanadi.. Notiqlik — og'zaki nutq bilan bog'liq hodisa, demak u nutqning og'zaki shaklidir. Notiqlik san'ati — og'zaki nutq san'atidir. Nutq madaniyati esa nutqning ham og'zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli tushunchadir. Nutq madaniyati jamiyat a'zolarining umumiy nutqiy faoliyatini ko'zda tutadi.

Nutq madaniyati sohasining maqsad va pirovard orzusi barchaning, butun xalqning nutqini madaniylashtirishni mo'ljallaydi. Mumtoz ma'nodagi notiqlik esa, alohida shaxslarning nutqiy mahoratini, san'atini ifodalaydi. Notiqlik, asosan, nutq vositasida kishilarga muayyan g'oya va maqsadlarni yetkazishni, ularni safarbar qilishni ko'zda tutadi. Adabiy so'zlashuv nutqi adabiy tilning og'zaki nutq doirasidagi vazifalaridan yuzaga keladi.

Boshqacha qilib aytganda adabiy so'zlashuv nutqi - adabiy til madaniyatiga, ya'ni adabiy til normalariga amal qilgan holda gapirishdir. Ammo adabiy tilda so'zlash adabiy tilda yozishga nisbatan ancha qiyinchilik bilan erishiladigan jarayondir. Buning bir qator sabablari bor: 1) og'zaki nutqda shevachilikning ta'siri kuchli bo'ladi; 2) og'zaki nutqda yozma nutqdagi kabi o'ylab ish tutish imkoni kam bo'ladi. Chunki og'zaki nutq yozma nutqdan tezkor (avtomatik) jarayon ekani bilan farqlanadi; 3) og'zaki nutqning o'ziga xos grammatik tuzilishi, qurilish tartibi mavjud. Chunonchi gap bo'laklarining tushib qolish, qisqarib ketishi, o'rin almashishi, aksincha keraksiz unsurlarning, takrorlarning bo'lishi va b; 4) og'zaki nutqda talaffuz, ohang, imo-ishora vositalari muhim rol o'ynaydi; 5) og'zaki nutqning yuzaga chiqishi so'zlovchining kayfiyatiga, nutq so'zlanayotgan vaziyatga, so'zlovchi nutqiy a'zolarining normal va sog'lomligiga bog'liq; 6) og'zaki nutq normalarining barcha xususiyatlarini payqash, yozib olish, o'rgatish va o'rganish ancha qiyinchilik bilan kechadi; 7) og'zaki nutq bir butun hodisa (matn) sifatida cheksiz va son-sanoqsiz shaxsiy (individual) faoliyatdir. Uning ko'pgina qirralari turli sharoitlarda o'zicha kechadi va payqalmagan holda beiz yo'qolib ketadi; 8) og'zaki nutqning lisoniy xususiyatlari fanda yozma nutqqa nisbatan kam o'rganilgan; 9) og'zaki nutqni normalash ishlariga shu kunga qadar fanda nihoyatda kam e'tibor berildi; 10) kishi so'zlaganda o'z nutqiga xuddi yozayotgandagi kabi etarli e'tibor beravermaydi va boshqalar. Nutqiy turlarni ba'zan ijtimoiy tabaqalar va guruhlar tili nuqtai nazaridan nomlash ham uchraydi. Chunonchi: o'qituvchilar nutqi, o'quvchilar nutqi, yosh-talabalar nutqi, bola nutqi kabi.

Xalqimiz shevachilikdan batamom qutula olgan emas. Garchi ko'pchiligimiz adabiy til me'yorlari talablari asosida savodli yozsak-da, talaffuzda e'tiborsizlik, loqaydlik, mas'uliyatsizlik davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/nutq-madaniyati-va-uni-shakllantiruvchi-asosiy-sifatlar> 2020
2. O'zbek adabiy tilining me'yorlari - azkurs.org <https://azkurs.org/ozbek-adabiy-tilining-meyorlari-v2.html>
3. www.openscience.uz / issn 2181-08421632
4. Sh.O.Mamayoqubova." O'qituvchi kasbiy mahorati va kompetentligini rivojlantirishda motivatsiyaning o'rni". Science and innovation ideas in modern education. Conference of India 2023, 19 p
5. Nutq madaniyati va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlar 2023 / Ahmadjonova Nilufarxon Yaqubovna <https://cyberleninka.ru/article/n/nutq-madaniyati-va-uni-shakllantiruvchi-asosiy-sifatlar>